

QASDDAN BADANGA O'RTACHA OG'IR SHIKAST YETKAZISH JINOYATINING KRIMINALISTIK TAVSIFI

Agzamov Bekzod Yunusovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Tergov faoliyati"
mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglochchisi.

E-mail: agzamov.bekzod@list.ru; Phone: +99897 720-35-30.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11670015>

Annotatsiya. Maqolada qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatining kriminalistik tavsifi yoritilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot asosida umumiy xulosalar berilgan, qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatining kriminalistik tavsifi bo'yicha amaliy tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, jinoyat, jazo, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, huquqni muhofaza qilish organlari, tergov faoliyati, badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish, takomillashtirish, kriminalistik tavsif.

CRIMINAL DESCRIPTION OF THE CRIME OF INTENTIONAL CAUSE OF MEDIUM SERIOUS BODILY INJURY

Abstract. The article describes the criminalistic description of the crime of intentional infliction of moderate grievous bodily harm. Based on the conducted research, general conclusions were given, and practical recommendations were given on the criminalistic description of the crime of intentionally inflicting moderate serious bodily injury.

Key words: Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, crime, punishment, mitigating circumstances, law enforcement agencies, investigative activities, inflicting moderate serious bodily injury, enhancement, criminalistic description.

УГОЛОВНОЕ ОПИСАНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННОГО С УМЫШЛЕННЫМ ПРИЧИНЕНИЕМ СРЕДНЕЙ ТЯЖЕСТИ ТЕЛЕСНЫХ ПОВРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В статье дана криминалистическая характеристика преступления умышленного причинения средней тяжести тяжкого телесного повреждения. На основе проведенного исследования даны общие выводы и даны практические рекомендации по криминалистической характеристике преступления умышленного причинения средней тяжести телесного повреждения.

Ключевые слова: Уголовный кодекс Республики Узбекистан, преступление, наказание, смягчающие обстоятельства, правоохранительные органы, следственные действия, причинение средней тяжести телесного повреждения, ужесточение, криминалистическая характеристика.

KIRISH

Boshqa jinoyatlar qatorida qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatini tergov qilishda ham kriminalistika fani bo'yicha ishlab chiqilgan, ilmiy asoslangan uslubiy tavsiyalar, ayniqsa, jinoyatlarning kriminalistik tavsifi juda muhim sanaladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha haqiqatni aniqlash va jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik va jazoning muqarrarligini ta'minlashda kriminalistikaning o'rni beqiyosdir. Chunki

ko'rsatilgan vazifaning ijrosini ta'minlash uchun har bir mutaxassis kelajakda qaysi lavozimda ishlashidan qat'i nazar jinoyatning kriminalistik tavsifini bilishi shart. Shuning uchun u tergovchi, sud, ekspert-kriminalist, tezkor xodimning jinoyatlarni ochish, tergov qilish va sudda jinoyat ishlarini hal etish faoliyatida yuzaga keluvchi obyektiv qonuniyatlarni o'rghanadi.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi – o'z ichiga uning axborot modelini qamrab oladi va umumlashtirilgan holda jinoyatning tipik jihatlari va xususiyatlarini aks ettiradi. Kriminalistik tavsifida aynan bir turga kiruvchi jinoyatlarning, masalan bosqinchiliklarning nima uchun bir-biriga o'xshashligi o'rghaniladi va bu o'rghanishning maqsadi ularni muvaffaqiyatli ochish va tergov qilishga qaratiladi. O'zga so'zlar bilan aytganda, bu jinoyatning ilmiy modeli bo'lib, uning mazmuni amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatining kriminalistik tavsifi ushbu jinoyatlarni fosh etish va ular yuzasidan tergovni rejalashtirish va tusmollarni ilgari surishda, shuningdek tergov yo'nalishini to'g'ri belgilashda asosiy o'rinni egallaydi.

Bizningcha, qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatning kriminalistik tavsifiga quydagilarni kiritish mumkin:

- jabrlanuvchi shaxsining tipik tavsifi;
- jinoyatni sodir etish va uning izlarini yashirishning tipik usullari, shuningdek jinoyatni sodir etish vaqt va joyi;
- jinoyatchi shaxsning tipik tavsifi;
- jinoyatning subyektiv tomonining tipik tavsifi kiradi.
- badanga yetkazilgan jarohatlarning tavsifi;
- jabrlanuvchiga yetkazilgan ruhiy-ma'naviy zararning tavsifi.

Kriminalistikaga oid adabiyotlarni o'rghanishda jinoyatning kriminalistik tavsifiga asosan jinoyat tarkibi elementlari JPKning 82-moddasida qayd etilgan va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar, tipik tergov vaziyatlari, jinoyatning tipik izlari, jabrlanuvchi va jinoyatchining shaxsiga oid ma'lumotlar kiritilganligini ko'rshimiz mumkin.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi – o'z ichiga uning axborot modelini qamrab oladi va umumlashtirilgan holda jinoyatning tipik jihatlari va xususiyatlarini aks ettiradi. Kriminalistik tavsifida aynan bir turga kiruvchi jinoyatlarning, masalan, bosqinchiliklarning nima uchun bir-biriga o'xshashligi o'rghaniladi va bu o'rghanishning maqsadi ularni muvaffaqiyatli ochish va tergov qilishga qaratiladi. O'zga so'zlar bilan aytganda, bu jinoyatning ilmiy modelday bo'lib, uning mazmuni amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatlarni tergov qilishda yuzaga keladigan tipik tergov vaziyatlari va ularning taktik yechimi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, har qanday jinoyatni tergov qilish o'ziga xos belgilarga ega bo'lib, uni sodir etish hollari va jinoyat ishi bo'yicha dalillarni yig'ish, ularni tadqiq etish va muayyan ravishda baholash sharoitlari bilan belgilanadi.

Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatlarni tergov qilish jarayoni sharoitlarida xilma-xil omillar ta'siriga duch kelib obyektiv (tergov qilish joyi va vaqt, isbotlovchi axborotning vujudga kelish sabablari) va subyektiv (tergovchining mutaxassislik darajasini rivojlanishi, tergovga aloqador shaxslarning yurish-turishlari va x.k.) ta'riflarga ega bo'ladi.

Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatlarni tergov qilishning muayyan

sharoiti o‘ziga xos hollar bilan belgilanib, kriminalistikada tergov vaziyati deb ataladi.

Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatlarni tergov qilish jarayonini tashkil qilib, alohida jinoyatlarni tergov qilish metodini ishlab chiqishning ahamiyati hozirgi paytda hamma tomondan tan olingan. Ammo tergov vaziyatining mohiyati va mazmuni hozirgi kunda har xil ta’riflarga ega¹. Ayrim olimlar tergov vaziyatini tergov qilish jarayonida vujudga kelgan sharoitlar deb bilsalar, boshqalari-tergov qilish yo‘llari va imkoniyatlarini belgilovchi ushbu sharoit to‘g‘risida olingan ma’lumotlar yig‘indisini axborot bazasi sifatida tan olishadi².

Biror bir jinoyat ishi yoki surishtiruvchi olib borayotgan surishtiruv ishlarida tergov vaziyati yuzaga kelishi muqarrar, negaki bu tergov holatisiz uni tasavvur qilish qiyin.

Tergov vaziyati ilgaridan mavjud bo‘lib kelgani holda, ushbu yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish 1930-1940-yillardan boshlangan.

Tergov vaziyati yuzasidan hozirgi kunga qadar quyidagi olimlar o‘z fikrlarini bayon qilib kelganlar: Masalan: R.S.Belkin, A.V.Dulov, V.K.Gavlo, I.F.Gerasimov, A.N.Vasilyev, N.A.Selivanov, A.F.Oblakov, V.A.Obrazsov, N.P.Yablokov, V.P.Baxin, P.D.Belinchuk, V.S.Kuzmachev, L.Y.Drapkin, G.Abdumajidov va boshqalar o‘z asarlarida o‘z fikrlarini aniq tergov vaziyatlariga qarab bayon qilib o‘tganlar.

Ammo olimlar haligacha o‘z fikrlari yuzasidan o‘zaro bahslar olib borish bilan birgalikda tergov vaziyatlari yuzasidan bo‘lgan fikrlarini rivojlantirib bormoqdalar.

Shaxsga qarshi jinoyatlarni tergov qilish o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lib, uni sodir etish xollari va jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni yig‘ish, ularni tadqiq etish va muayyan ravishda baholash sharoitlari bilan belgilanadi. Ana shu belgilarni jinoyat ishi yuzasidan yoki dastlabki surishtiruv ishlari davrlarida tergov vaziyati deb tan olinadi. Shaxsga qarshi jinoyatlar ma’qul va noma’qul tergov vaziyatlarida yuzaga keladi.

Birinchi turdag‘i tergov vaziyatlarining negizi shundan iboratki, u tegishli tergov qilish bosqichida qanday holatlar, sharoitlar vujudga kelgani ma’qul yoki noma’qul bo‘lganini aniqlashga yordam beradi.

Agarda sharoitlar mavjud bo‘lsa, tergovchi mavjud imkoniyatlarni omilkorlik bilan amalga oshirilishini ta’minlab berishi kerak. Masalan, jinoyatchining tashqi qiyofasi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar bo‘lsa, ular asosida qidiruv uchun kompozitsion (umumlashtirilgan) portret tayyorlanib ishlatalishi kerak: gumonlanuvchini joyida dalil bilan tutib olib, uni so‘roq qilish davrida ruhiy holatini va ushlab olinishini hisobga olgan holdan foydalanib, tergov uchun muhim bo‘lgan axborotni mustahkamlash zarur bo‘ladi va x.k.

Agarda sharoitlar va holat noma’qul bo‘lsa, ushbu holatni ma’qulga aylantirish uchun maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatib uni o‘zgartirishga harakat qilish kerak. Masalan, jinoyatchi to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lmasa yoki to‘liq bo‘lmasa, u to‘g‘risida tegishli axborot beradigan shaxslarni qidirish kerak bo‘ladi.

Tergov holatining ma’qul bo‘lishi ko‘rsatkichlaridan biri isbotlashga oid axborotning bor bo‘lishi yoki bor bo‘lmasligi; uni olishning imkoniyati mavjudligi va jinoyatni tergov qilish

¹ Белкин Р. С. Криминалистика: проблемы, тенденции, перспективы. От теории — к практике — М., 1988 г.

² Белкин Р. С. Криминалистика: проблемы, тенденции, перспективы. От теории — к практике — М., 1988 г.

maqsadlarida ishlatilishi. Noma'qul tergov holati odat bo'yicha, ma'qul holatga qaraganda isbotlashga oid axborotni olish uchun qo'shimcha choralarini qo'llashni taqozo etadi.

Noma'qul tergov holatlari o'zining ta'rifi va hajmi bo'yicha quyidagilarga taqsimlanadi:

- gumon qilinuvchini aniqlash va qidirishga kerak bo'lgan (iz va daliliy ashyolarni va ular to'g'risidagi) ma'lumotlarning yo'qligi;

- ma'lum shaxsning jinoyatga aloqasi borligini tekshirish uchun bor bo'lgan ma'lumotlar (poyabzalning izlari, to'siqni sindirish qurollaridan qolgan izlar va x.k.);

- gumon qilinuvchini qidirish va aniqlashni ta'minlaydigan axborotning borligi (tashqi qiyoysi to'g'risidagi belgilari va olib ketilgan narsalarning belgilari va x.k.).

Shunday axborotga oid vaziyat tergovning ham boshlang'ich, ham kelgusi bosqichlarida vujudga kelishi mumkin. Masalan, jinoyat ishini jinoyatchining shaxsi aniqlanmaganligi uchun to'xtatilganda axborotning to'liq bo'lmasligi tabiiy holat bo'lib, o'sha holat jinoyatning ochilmay qolishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Holatning ma'qul yoki noma'qulligi quyidagi omillar ta'sirida ham belgilanadi:

- olingan axborot mazmuniga oid tegishli masalalarni yechish uchun tegishli imkoniyatlarning (kuchlar, vositalarning) borligi bilan;

- jinoyatni tergov qilishda unga aloqador bo'lgan shaxslarning maqsadlari va manfaatlari birligi yoki qarama-qarshiligi bilan.

Oxirgisi tergov holatlarini ziddiyatli va ziddiyatsiz holatlarga bo'linishini ta'minlab beradi.

«Tipik» tushunchasi bir qancha ma'nolarga ega. U normal, namunali, obyektiv olamning muayyan tizimi uchun ehtimolligi eng ko'p bo'lgan³ hamda umumlashgan, bir guruh predmetlar, obyektlarning ushbu guruhi, sinfi uchun muhim bo'lgan barcha jihatlarni qamrab oluvchi hodisalar uchun namuna bo'lgan umumiylig⁴ - sifatida ta'riflanadi.

Boshqacha qilib aytganda, ushbu turdag'i jinoyatlarning nazariy va amaliy o'rganib chiqish natijasida quyidagi tipik tergov vaziyatlarni taklif etish maqsadga muvrfiq deb o'ylaymiz.

Shaxsga qarshi jinoyatlari sodir etilgan joyda jinoyatchi yoki jinoiy guruh jinoyat ustida ushlangan.

-ushlanganlarni shaxsiy tintuv qilish, hodisa joyini ko'zdan kechirish, jabrlanuvchi, guvohlar, gumon qilinuvchilarini so'roq qilish (bunda guruh a'zolaridan qaysi biri vazifani bajarganligini, ularning har birining jinoyat qilish vaqtidagi harakati nimada ifodalanganligini va boshqa ma'lumotlarni aniklash), zarurat bo'lganda ko'rsatuvlarida jiddiy ziddiyatlar aniqlangan shaxslarni yuzlashtirish. Olingan natijalardan kelib chiqib, tergovchi ish bo'yicha kelgusidagi tergov yo'nalishini rejalashtirishi kerak;

-qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatlari sodir etishda gumon qilinib, bir necha kishi ushlangan, ishtirokchilardan biri yoki bir nechta jinoyat sodir etilgan joydan qochib yashirinishga muvaffaq bo'lgan, ularning shaxsi hozircha noma'lum. Bunday vaziyatda quyidagi tergov va boshqa harakatlarni o'tkazish zarur: ushlanganlarni shaxsiy tintuv qilish, hodisa joyini ko'zdan kechirish, jabrlanuvchini (guvohlarni, ushlanganlarni) so'roq qilish, yashiringan ishtirokchilarini aniqlash va ushslash maqsadida operativ qidiruv tadbirlarini o'tkazish, jabrlanuvchi

³ Қаранг: Советский энциклопедический словарь / Гл. ред. А.М. Прохоров. -2-е изд. - М., 1983. - С. 132.

⁴ Қаранг: Кондаков Н. И. Логический словарь-справочник / Под ред. Д.П. Горского. 2-е изд. - М., - С. 595.

va voqeani ko‘rgan guvohlarning so‘zlari asosida yashiringanlarning subyektiv portretlarini tuzish, yashiringan shaxslarni aniqlash va ushslash, ularning o‘zlarini va turar joylarini tintuv qilish, gumon qilinuvchilarni so‘roq qilish, ularni jabrlanuvchi va voqeani ko‘rgan guvohlarga tanib olish uchun ko‘rsatish, shuningdek, olingan natijalardan kelib chiqib tergovchi ish bo‘yicha kelgusi tergovni rejalashtirishi kerak;

-qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatlari sodir etganlikda gumon qilinib, bir shaxs ushlangan, qolgan ishtirokchilar yashirinishga muvaffaq bo‘lganlar va ularning shaxslari ma’lum. Bunday tergov vaziyatida tergovchi quyidagi tergov va boshqa harakatlarni amalga oshirishi zarur. Ushlangan shaxsni tintuv qilish, voqeа joyini ko‘zdan kechirish, jabrlanuvchini, gumon qilinuvchini so‘roq qilish, jinoiy guruhning boshqa a’zolarini ushslash, ularning o‘zlarini va turar joylarini tintuv qilish, ushlanganlarni so‘roq qilish, voqeani ko‘rgan guvohlarga ko‘rsatish, zarur bo‘lganda ularning yuzlashtirish. Ish bo‘yicha bundan keyingi tergov harakatlarni tergovchi olingan natijalardan kelib chiqib, rejalashtirishi kerak;

-qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyati sodir etilgan jinoyatchi jinoyat joyidan qochib yashiringanlar. Bunday tergov vaziyatida quyidagi tergov va boshqa harakatlarni amalga oshirish zarur: hodisa joyini ko‘zdan kechirish, jabrlanuvchini, guvohlarni so‘roq qilish, yashiringan gumon qilinuvchilarni aniqlash va ushslash maqsadida operativ qidiruv tadbirlarini o‘tkazish, jabrlanuvchi va voqeani ko‘rgan guvohlarning so‘zlari asosida yashiringanlarning subyektiv portretlarini tuzish. Olingan natijalardan kelib chiqib tergovchi ish bo‘yicha kelgusi tergovni rejalashtirishi kerak.

Jinoyat to‘g‘risidagi haqiqiy bilim bir zumda qo‘lga kirmaydi. Bu bilim faktlarni o‘rganish va dalillarni har tomonlama, sinchkovlik bilan tekshirish natijasida shakllanadi. Tergovning dastlabki bosqichida ko‘pgina faktlar to‘g‘risida muayyan bo‘lmagan, ehtimollik darajasiga ega bo‘lgan fikrga kelish mumkin. Masalan, ko‘pincha tergovning boshida jinoyat bo‘lganmi, bo‘lmaganmi, go‘yoki jinoyat sodir etilgai deb mish-mish tarqatilganmi yoki jinoyat o‘rniga baxtsiz hodisa ro‘y bergenmi, degan masala ko‘ndalang bo‘ladi. Bundan tashqari, muayyan jinoyat kim tomonidan sodir etilganligini aniq aytish qiyin bo‘lib, uning qanday maqsadlarda, qachon, qayerda, qanday vaziyat va shart-sharoitlarda, qanday holatlarda sodir etilganligini aniqlash masalasi qo‘iladi. Bu to‘g‘rida faqat ehtimollik jihatidan fikr yuritish mumkin.

Tusmol jinoyatni tergov qilish jarayonida layoqatli shaxs tomonidan o‘rganiladigan hodisaning mohiyatini tushuntirib beruvchi, asoslangan, voqelikda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan yoki hodisaning ayrim hollarini, faktlarning kelib chiqishini va ular o‘rtasidagi aloqalarini ta’riflovchi taxmin sifatida ifodalanadi⁵.

Ushbu ta’rifga ko‘ra, tusmol fikr yuritish shakli, faktlarni tushuntirib berish va o‘rganish uslubi rolini bajarib, ehtimollikka oid bilimning aniq bilimga aylanishini ta’mindaydi.

Shaxsga qarshi jinoyatlarida tusmolning mohiyatiga yetish uchun uni har tomonlama, ya’ni psixologiya, mantiq, modellashtirish nazariyasi, sud dalillari nazariyasi nuqtai nazaridan o‘rganish lozim bo‘ladi.

Ushbu vazifalarni bajarishda tipik tusmollarni ilgari surish va tekshirish muhim o‘rin tutadi.

⁵ Каранг: Криминалистик тактика дарслиги Т.: 1996 й 174 б.

Yuqorida sanab o‘tilgan vaziyatlardan istalgan birida odam o‘ldirish, tan jarohati yetkazish va nomusga tegish jinoyatining mavjudligini aniqlangan deb hisoblash mumkin bo‘lgani bois, ushbu jinoyatlarni kelib chiqishi va sodir etilishining maqsadini tushuntirishga qaratilgan tusmollar birinchi o‘ringa chiqadi.

Demak, qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etilishining maqsadini tushuntirishga qaratilgan tusmollar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Shaxsga qarshi jinoyatlarni sodir etilishining maqsadini tushuntirishga qaratilgan tusmollar:

Birinchi tipik tergov vaziyatidan kelib chiqib, quyidagi tusmollarni tuzish mumkin:

- jabrlanuvchiga nisbatan g‘ayriqonuniy harakatlar natijasi;
- sodir etilgan qilmish baxtsiz xodisa oqibati;
- kelib chiqqan oqibatlar jabrlanuvchining o‘zi qilgan ehtiyotsiz harakatlarining oqibati;
- jabrlanuvchi va gumon qilinuvchilar shu qishloqni, shu shaharni va shu tumanni fuqarolari bo‘lishi mumkin;

-jabrlanuvchi va gumon qilinuvchi boshqa viloyatlar yoki respublikalar fuqarosi bo‘lishi mumkin;

-jabrlanuvchi va gumon qilinuvchi o‘zaro yaqin tanish bo‘lishi mumkin.

Ikkinci tipik tergov vaziyatidan kelib chiqib, quyidagi tusmollarni tuzish mumkin:

- gumon qilinuvchi shu hodisa sodir bo‘lgan joyda yashab keladi;
- gumon qilinuvchi jabrlanuvchining yaqin tanishi;
- gumon qilinuvchi boshqa tumanlar, viloyatlardan kelib ushbu jinoyatlarni sodir qilgan bo‘lishi mumkin.

Uchinchi tipik tergov vaziyatidan kelib chiqib, quyidagi tusmollarni tuzish mumkin:

- gumon qilinuvchi uy-ro‘zg‘orida yashirinib yuribdi;
- gumon qilinuvchi yaqin qarindoshlarnikida yashirinib yuribdi;
- gumon qilinuvchi boshqa respublikada yashirinib yuribdi.

To‘rtinchi tipik tergov vaziyatidan kelib chiqib, quyidagi tusmollarni tuzish mumkin:

- gumon qilinuvchi jinoyatni shaxsiy adovatlik natijasida sodir qilgan;
- gumon qilinuvchi tan jarohatini mulkni talash natijasida sodir qilgan;
- gumon qilinuvchi jinoyatni rashq yoki boshqa past niyatlar asosida sodir qilgan.

Ushbu tergov holati kamroq uchrasada, ammo amaliyotda hozirgi kunga qadar uchraydi.

Bunday jinoyatlar asosan ilgari sudlanib chiqqan retsidiivistlar, ruhiy bemor shaxslar tomonidan sodir qilinadi. Bunday jinoyatlar boshka og‘ir jinoyat bilan birgalikda tergov qilinadi.

Yuqoridagi tipik vaziyatlardan kelib chiqib aytish mumkinki ushbu qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatini tergov qilishda ham bir qancha muammolar mavjuddir.

Jumladan ushbu jinoyat sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda ashyoviy dalililar bilan bog‘liq muammolarni ko‘rshimiz mumkin. Ushbu holatni quyidagicha tavslirlash mumkin:

birinchidan bu jamoat joylarda bog‘larda, ko‘chalarda, bozorlarda, odamlar ko‘p joylarga kelib-ketishi izlarning yo‘q bo‘lib ketishi xavfi mavjud;

ikkinchidan kafe-barlarda esa rahbarlar va xizmatchilar o‘zlarini tergov olib qolish maqsadida ushbu jinoyatni izlarni, dalillarni yo‘qolib tashlashga harakaat qiladi.

Bizning fikrimizcha, bunday holatda shu hududdagi profilaktika nozirlarni va boshqa

javobgar shaxslarning ma'suliyatini kuchaytirish hamda provard natijada hodisa sodir bo'lgan joydagi daliliy ashyolarni jinoyatning yaqqol izlarnini tergovchi yetib borguncha o'z holatida saqlash va muhofaza qilish kerak degan fikrdamiz.

Bundan tashqari yana bir muammoli holat ko'rib o'tishimiz mumkin ya'ni sodir etilgan jinoyat ishi bo'yicha gumon qilinuvchi shaxsini faqat jabrlanuvchi so'zidan ko'rsatib tasdiqlab turibdi va uni ayblash uchun boshqa hech qanday isbot-dalillar mavjud emas. Shunday vaqtida tergovchi oldida qiyin bir holat vujudga keladi.

Chunki shaxsni ushlab turishi muddati o'tib ketishi uni ayblanuvchi sifatida ishga jalb qilish qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmasa shaxsni qo'yib yuborish bilan bog'liq muammo vujudga keladi.

Shundan kelib chiqqan aytish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan birigina asos, ya'ni jabrlanuvchining ko'rsatmasi bilan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish va sudyadan qamoqqa olish to'g'risida sinksiya olish uchun yetarli emas, ammo tergovchi ushbu holatda shaxsni qo'yib yuborsa u qochib ketsa hamda keyinchalik shaxsni qilmishini isbotlavchi dalilar topiladigan bo'lsa, agar tergovchining faoliyatiga ham tergov olib borishga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday bir horlatda, bizningcha birinchi navbatda gumondarning uyini tintuv qilish maqsadga muvofiqdir.

Negaki gumon vilinuvchi o'sha jinoyatni sodir qilgan kundagi kiyimlarni, jinoyat qurollarini uyiga qo'yigan bo'lishi mumkin. Ushbu tintuvda topilgan daliliy ashyolar esa ushbu turdag'i jinoyatlarni tergov qilishda va ochishda yordam beradigan hamda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan ushbu shaxsga qarshi jinoyatlarini tergov qilishdagi muammolaridan biri bu tergov qilishda boshqa IIIlari bilan hamkorlining yaxshi va sifatli yo'lga qo'yilmaganligidir.

Ayniqsa tergovchi ushub jinoyat bo'yicha tergovni olib borishda operativ xodimlari bilan hamkorlik qilishga to'g'ri keladi. Tergovchi jinoyat bo'yicha bergan topshiriqlariga operativ xodim yuzaki qaraydiyoki boshqacha munosabatda bo'lishi natijasida ushbu topshiriqlar bajarilmay qoladi. Natijada esa tergovchning ish faoliyatiga, ya'ni tergov olib borishiga salbiy natija ko'rsatadi.

Jinoyat kodeksining Maxsus qismida ko'rsatilgan barcha jinoyatlar o'zining kriminalistik tavsifiga ega bo'lib, har bir alohida turdag'i jinoyatlarning kriminalistik tavsifi o'z ichiga bir nechta elementlarni qamrab oladi.

Jumladan, qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi mazmuniga quyidagi elementlarni kiritish mumkin:

- jinoyat to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarning tipik tavsifi; - dastlabki axborot va ma'lumotlar tizimi;
- jinoyatni qanday yo'l bilan sodir etish usullari va izlarni yashirish usullari;
- ehtimol utilgan jinoyatchining shaxsi va u jinoyatni qanday maqsadlarda sodir etganligi;
- jinoiy tajovuzning tipik jabrlanuvchisiga oid malumotlar;
- jinoyatning qanday holatlar va sharoitlarda (joyi, vaqt, sodir etish usuli bo'yicha) sodir etilishi to'g'risidagi axborotlar va hokazo.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha elementlar ma'lum tizimni tashkil qiladi, ya'ni ular bir biri

bilan bog‘liq bo‘lib, bir biri bilan o‘zaro tobelik aloqalariga ega.

Shunday qilib, qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatining kriminalistik tavsifi - bu barqaror bir xil xususiyatga ega bo‘lgan alohida turdag'i jinoyatlarning ochilishi va tergov olib borilishiga yordam beruvchi alomatlar yig‘indisidir.

Jinoyatlarni kriminalistik tavsifining tarkibiy kismi - bu jinoyatning sodir etilish vaqtini va joyini, jinoyatni sodir etilishiga tayyorgarlik ko‘rish holati, maqsadi va sababi, jinoyatning kriminalistik belgisi- izlarning o‘ziga xosligi, keng ma’nodagi izlarning paydo bo‘lishi mexanizmi, jinoyatlarni sodir etish va izlarni yashirish hisoblanadi⁶.

Jinoyat ishlari bo‘yicha muvaffaqiyatli ish olib borish uchun tergovchilar va surishtiruvchilarga avvalo tergov qilinayotgan turdag'i jinoyatlarning batafsил kriminalistik talab qilinadi.

Jinoyatlar kriminalistik tavasifi kompleks (yani uyg‘un birlikdagi) mazmunga ega.

Ularning asosiy qismi jinoiy xulq mexanizmni, jinoyat to‘g‘risidagi axborotni olish va undan foydalanish tarkibini kriminalistik tadqiq etish, jinoyatning va jabrlanuvchining shaxsini aniqlash va xokazo jarayonida aniqlanadi.

Kriminalistik tavsifni bilish tergovchilarning surishturiv organlari bilan xamkorlik shaklini, bir qancha kechiktirib bo‘lmaydigan tergov xarakatlarini kompleksini tanlashni, jinoyatchi shaxs haqida tusmollarni ilgari surishni, jinoyat ishini qo‘zg‘atmasdan oldin hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalarni aniqlashga yordam beradi. Muayyan jinoyat turining tipik xususiyatidan kelib chiqib tergov qilish jarayonida tergovchi o‘ziga aniq tegishli bo‘lgan ayrim savollarni ajratib olishi va protsessual mustaxkamlashi shart. Jinoyat ishini tergov qilishning tipik dasturiga isbot qilinishi lozim bo‘lgan holatlar kiradi.

Kriminalistik tavsifni bilish tergovchilarning surishturiv organlari bilan xamkorlik shaklini, bir qancha kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini kompleksini tanlashni, jinoyatchi shaxs haqida tusmollarni ilgari surishni, jinoyat ishini qo‘zg‘atmasdan oldin hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalarni aniqlashga yordam beradi. Muayyan jinoyat turining tipik xususiyatidan kelib chiqib tergov qilish jarayonida tergovchi o‘ziga aniq tegishli bo‘lgan ayrim savollarni ajratib olishi va protsessual mustaxkamlashi shart. Jinoyat ishini tergov qilishning tipik dasturiga isbot qilinishi lozim bo‘lgan holatlar kiradi.

Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish xar xil uslubda amalga oshiriladi bunda jaroxat yetkazishda qo‘llaniladigan kurol turlari tasnifini va jaroxat yetkazish vaqtidagi vaziyatni aniqlashimiz lozim bo‘ladi. Tan jaroxati elektr toki, olov, qaynoq suv, kislotalar, o‘q otar quroq, ohak eritmalar, to‘mtoq buyum va hakozolar natijasida yetkazilishi mumkin. Eng ko‘p tan jaroxatlari kesuvchi va to‘mtoq buyumlar bilan yetkaziladi. Aksariyat hollarda bu jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko‘rilmaydi, aksincha bu jinoyat qo‘qqisdan paydo bo‘ladigan oiladagi janjallar yoki janjal qatnashilarining jamoat joylarida (ko‘chada, diskotekada, restoranda va hakazo) spirtli ichimliklar, giyohvand va psixotrop moddalar is’temol qilishi natijasida kelib chiqadi. Janjalli ziddiyatlarning kelib chiqishiga arzimas bahonalar sabab bo‘lishi mumkin, ya’ni hujum qiluvchiga nimadir yoqmasligi, ishtiroychilarning biriga ko‘proq e’tibor qaratilishi, qo‘pol xarakatlanishi, nojo‘ya xarakati uchun bildirilgan fikr, avaylamay aytilgan so‘z. Ziddiyatli janjallar

⁶ Карап: Абдумажидов Ф.А. ва бошқалар. Криминалистика: Дарслик. – Т., 2003. – Б. 17-20

ayrim hollarda mushtlashishga aylanib ketadi, ya’ni bunday hollarda qatnashchilarining o’rni o’zgarib janjallashuvchi himoyalanuvchiga aylanib qolishi mumkin. Bunday vaziyalarda qo’lga tushgan xar kanday pichoq, tosh, yog’och, taburetka, otverka va xakoza buyumlar ishlatalishi mumkin⁷. Bu turdag'i jinoyatlar asosan kechki payt sodir etilganligi sababli jinoyat izlarini yashirish imkonи yo‘q. Sog‘liqqa shikast yetkazish jinoyati qo’rqtish, qasos olish maqsadida ham sodir etilishi mumkin. Bu vaziyatda jinoyat kuning har xil vaqtilarida, odamlar kam yoki umuman yo‘q joylarda sodir etiladi. Jinoyatchi o‘zining jabrdiydasini qo’lga tushirish maqsadida ayrim hollarda pistirmada yotadi yoki uni ko‘zatib yuradi. Asosan xujum kutilmagan xolatda bo‘lganligi sababli jabrlanuvchi zaruriy mudofaa choralarini qo’llash imkoniyatiga xam ega bo‘lmay qoladi.

Ba’zan kutilmagan xolatda xujum qilinishidan kat’iy nazar xujum qilinuvchiga qarshilik ko‘rsatish xolları xam uchrab turadi. Barcha hollarda hodisa sodir bo‘lgan joydagi ashyoviy dalillar jabrlanuvchi va xujum qilinuvchining tanasidagi ularning kiyimlarida jinoyat qurolining aloqasi natijasida muayyan izlarning paydo bo‘lishi kuzatiladi. Bu turdag'i jinoyatning sodir etilishida paydo bo‘ladigan izlar bular badandagi tan jaraxotlar, qon, kiyimlarda paydo bo‘lgan nuqson izlari va mikroizlar (tan jaroxati natijasida badananing yuzaligiga yetkazilgan muxrsimon jaroxatlar, kurol izida bo‘lgan o‘ziga xos belgilarni jabrlanuvchining tanasida zarba asosida aks ettirilgani, qatlamsimon zarar, qurol qatlamlaridan uzilib tushgan qatlamlı zarralar, badaning yuzaligiga quroldan ajralib kirib ketgan zararlar) buyumlardagi tirnalgan, tilingan, sanchib teshilgan va xakoza turdag'i jaroxatlar hodisa sodir bo‘lgan joyda bo‘lgan odamlarning izlari, odam tanasining qismlari (dinamik va statik), qo’llar, oyoqlar izlari, olib ketilgan va qoldirilgan buyumlarning va xar xil narsalarning izlari. Bu turdag'i jinoyat ishini tergov qilish davomida jinoyatchining shaxsi jinoyat sodir etishdan oldin va keyingi o‘zini tutishdagi jamiyatga qarshi karatilgan xulqi bilan ta’riflanadi. Bu turdag'i jinoyatlarni tergov qilish metodikasi yuqorida ta’kidlangan o‘ziga xos xususiyatlarda aniqlanadi.

Jinoyatlar kriminalistik tafsiflarining mazmuni tafsiflanayotgan jinoiy qilmishning mohiyatiga, tergov qilish xusisiy uslibiyotining turi va ishlanganlik darajasiga ilmiy tadqiqotning vazifalari va usullariga hamda bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Jinoyatlar to‘g‘risidagi eng tipik boshlang‘ich axborotning tafsifi jinoyatlar kriminalistik tafsifining muhim elemertlari jumlasiga kiradi. Ana shu axborotning mazmuni va shakliga qarab tekshirishga oid ishlar tartibi hamda ularni ochish, tergov qilish va ularni oldini olishning dastlabki bosqichlari dasturlari belgilanadi.

Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyati to‘g‘risidagi eng tipik boshlang‘ich axborot sifatida quyidagilarda ifodalaniishi mumkin:

1) Jinoyatning ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan sodir etilganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar;

2) Jabrlanuvchiga yetkazilgan tan jarohatining xususiyatini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar.

Ushbu jinoyat bo‘yicha axborotning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar jinoyatni bevosita ko‘rgan, bilgan shaxslarning ko‘rsatuvlarida ifodalangan bo‘lishi mumkin bo‘lib, ularni bunday ma’lumotlarga ega shaxslardan aniqlash

⁷ Қаранг: Алимова Р.А., Норбоев А.Н. Жиноятларни тергов қилиш усуллари. Ўкув кўлланма. -Т.: ТДЮИ нашириёти, 2007. - Б. 14.

tushuntirishlar qabul qilish, tushuntirishlarda ifodalangan axborotlarni bir-biriga taqqoslash, qaramaqarshiliklar mavjud bo‘lganda ularga aniqlik kiritish va oydinlashtirish hamda bartaraf etish orqali olish mumkin.

Bu borada jinoyatdan jabrlangan shaxsdan olishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar ham muxim ahamiyat kasb etadi. Bunda jabrlanuvchidan ma’lumot ola olish imkoniyati ya’ni tushuntirishlar berishga qodirligi inobatga olinadi. Jabrlanuvchining bunday jinoyatlarda sog‘lig‘i holatiga ko‘ra tushuntirish bera olmasligi, ma’lumot berishni xohlamasligi yoki qo‘rqish sababli axborot olishni qiyinlashtirishi mumkin. Lekin jinoyat to‘g‘risidagi axborot orqali tuziladigan tusmollarda jabrlanuvchining axboroti yetakchi o‘rinlardan hisoblanadi.

Jinoyatlar kriminalistik tavsifining majburiy elementlari jumlasiga extimol tug‘ilgan jinoyatchining va uning extimoldagi jabrlanuvchining shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlar qiladi.

Ushbu ma’lumotlar jabrlanuvchi shaxsning jinsi, yoshi millati, uning shaxsiga oid ma’lumotlar (ijtimoiy-demografik psihologik), salomatligi holati (jinoyat sodir etilishidan oldin va keyin) to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Kriminalistik uslubiyat soxasidagi tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, jinoiy tajavuz jabrlanuvchi, jinoyatni sodir etish usuli, uning xususiyatlari, oqibatlari va jinoyatchining shaxsi o‘rtasida muayyan aloqadorlik bo‘ladi. Bunday aloqadorlik haqidagi kriminalistik ma’lumotlardan foydalanib, surishtiruvchi va tergovchilar ayrim jinoyatlar yuuzasidan ehtimolda tutilgan jinoyatlarning shaxsi to‘g‘risida assoli tusmollarni olg‘a surishlari hamda tergov qilishlarning eng maqsadga muvofiq dasturni belgilab olishlari mumkin.

Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatining kriminalistik tavsifining elementi sifatida eng tipik boshlag‘ich axborotni shakllantirishda gumon qilinuvchi (gumon qilinuvchilar)dan olingan ma’lumotlar ham o‘ringa ega (bu shaxslar jinoyat ustida qo‘lga olingan hollarda). Chunki gumon qilinuvchi (gumon qilinuvchilar) xuddi jabrlanuvchilar singari jinoiy hodisaning bevosita qatnashchilari hisoblanadi. Qo‘lga olingan shaxs (shaxslar) javobgarlikdan qo‘rqish, taqdирга tan berish, javobgarlikning yengillashtirilishidan umid qilish, boshqa ishtirokchi (ishtirokchilar)ni yashirish yoki voqeani boshqa usulda o‘zgartirish maqsadida sodir bo‘lgan jinoiy hodisa to‘g‘risida tushuntirishlar berish mumkin.

Jabrlanuvchiga yetkazilgan tan jarohatining xususiyatlarini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatining kriminalistik tavsifi elementi sifatida dastlabki axborotni shakllantirishda muxim o‘ringa ega. Bunda yetkazilgan tan jarohatining og‘irlilik darajasini ekspertiza orqali aniqlashni emas, balki, tan jarohatining mavjudligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlarning (masalan tashqi tomondan ko‘rinib turgan) o‘zi hodisa yuzasidan to‘planayotgan boshlang‘ich axborot uchun yetarli hisoblanadi. Yetkazilgan tan jarohatining og‘irlilik darajasini (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 172-178-moddalari) ekspertiza tayinlash va uning xulosasini olish orqali erishilgan ma’lumot boshlang‘ich axbortni mustahkamlaydi, unga aniqlik kiritadi, oydinlashtiradi.

Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatining kriminalistik tavsifi tarkibiga, jinoyatni sodir etish va yashirish usullari haqidagi ma’lumotlar tizimi ham kiradi.

Jinoyatlarni sodir etish usuli deganda, jinoiy qilishni tayyorlash, sodir etish va yashirishga, shu jumladan tegishli qo‘llar va vositalarni qo‘llashga, joy va vaqt ni tanlashga, tegishli holatlardan foydalanishga qaratilgan o‘zaro aloqador hamda o‘zaro bog‘liq holatlar tizimi tushuniladi.

Ushbu jinoyat bo‘yicha quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- jinoyatni tayyorlash, sodir etish va yashirish;
- jinoyatni sodir qilish joyi;
- jinoyatni sodir qilish vaqt;
- jinoyatni sodir qilishda qurollar va vositalarni qo‘llash.

Jinoiy qilmishni tayyorlash, sodir etish va yashirish jinoyatni amalga oshirish ketma-ketligini ifodalaydi. Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarda tayyorgarlik harakatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: tan jarohati yetkazish holatlari yo‘naltirilgan shaxsni o‘rganish (kuzatish), bir guruhni shakllantirish, muayyan vaqtini kelishib olish (yoki to‘satdan), muayyan sharoitni kutish yoki yaratish va boshqalar (masalan qurol yoki vositalarga ega bo‘lish). Tan jarohati yetkazish harakatlarini sodir etish, uni bevosita amalga oshirishni ifodalaydi. Jinoyatni bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishida harakatlarni bevosita birga amalga oshirishlari, ijrochi sifatida qatnashishlari, tan jarohatlarini yetkazishga qaratilgan harakatlarni har ikkala yoki undan ortiq shaxslar bajarishlari ko‘zda tutiladi⁸ Bunda shaxslar jabrlanuvchining tana qismining turli joylariga zARBalar berishlari (musht yoki boshqa predmetlar yoxud oyoq bilan) mumkin. Albatta bu holda sodir etilgan qilmish nitijasida yetkazilgan tan jarohatini o‘rtacha og‘irlikda deb baholanishi uchun sodir etilgan harakat (uning yetkazilish usuli, qo‘llangan predmentning xususiyati) hayot uchun xavfli bo‘lmaganligiga e’tibor qaratish lozim.

Ushbu jinoyatni yashirish quyidagi harakatlar amalga oshirilishi mumkin: ishtirokchilar yuzlariga niqob taqib harakat qilishlari; jabrlanuvchiga qo‘qisdan ortdan tajovuz qilishlari, jabrlanuvchini oshkor qilmaslik to‘g‘risida «ogohlantirishlari» qilmish sodir etilgan ma’muriy xududiy birlikdan chiqib ketishlari (viloyatdan viloyatga yoki umuman boshqa hududga), qilmishni hech qanday guvohlarsiz amalga oshirishlari va buning uchun muayyan sharoit yaratish yoki kutishlari; voqeadan habardor shaxslar (shu jumladan, bevosita guvohlar) ni «ogohlantirishlari», qilmishni bevosita amalga oshirgan shaxslar o‘zaro kelishib olishlari (qilmishni sodir etgan vaqtda (kun, soat) birga bo‘lmaganlari yoki umuman bir-birlarini tanimasliklari to‘g‘risida) va hokazolar.

Jinoyatni sodir qilish joyi har qanday hudud bo‘lishi mumkin: kofe-bar, o‘quv yurtlari, ko‘cha, maxalla (xatto xonodon), bozor, jamoat joylarida ham bo‘lishi mumkin. Bir guruh shaxslar tomonidan (ayrim hollarda yakka shaxs tomonidan sodir etilganda ham) sodir etilishini inobatga olsak, ushu jinoyat ko‘proq muayyan sharoitlarga ega joylarda amalga oshiriladi.

YA’ni kishilar ko‘zidan holi, kameralashtirilmagan, ovloq joylarda bajariladi. Bunday joylar sifatida yaxshi yoritilmagan ko‘chalar, katta binolarning orqa tomoni, o‘quv yurtlarida esa aksariyat hollarda hojatxonalar va ularning atroflarida sodir etiladi.

Jinoyat sodir qilish vaqt umumiy tan jarohat yetkazish jinoyatlaridan kelib chiqib, kunning ikkinchi yarmida (aksariyat hollarda) sodir etiladi.

Jinoyatni sodir etishda muayyan vositalarni qo‘llash. Bunda jinoyatning xususiyati (tan jarohatining og‘irlik darajasi) dan kelib chiqib xayot uchun xavfli bo‘lmagan predmetlar nazarda tutiladi. Masalan, maishiy ro‘zg‘or buyumlari, suviner pichoqlar, taxta bo‘laklari va boshqalar

⁸ Қаранг: Ўзбекитон Республикаси Олий суди Плунумининг 2007-йил 27-июнъдаги «баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги №6-сонли карори 16-банд

bo‘lishi mumkin. Bunday jinoyatlar ko‘pincha qo‘l mushti yoki oyoq orqali amalga oshiriladi.

Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatini tergov qilishda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar doirasi jinoyatlar kriminalistik tavsifining yana bir elementi hisoblanadi.

Jinoyatlar zamonaviy kriminalistik tavsiflarining aksariyatida ularni tergov qilish paytida aniqlanishi lozim bo‘lgan jinoyatlar tartibining asosiy elementlari muayyan tizimga solingan holatlar ro‘yxati keltiriladi. Bular:

a) tajovuz nimaga qaratilgan, nimaga zarar yetkazilgan, zararning miqdori. Tadqiq etayotgan jinoyatimiz bo‘yicha tajovuz qilish obyekti jinoiy-xuquqiy jixatdan shaxs sog‘lig‘ini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Bunda tajovuz amalga oshirayotgan shaxslarning harakatlari o‘zga shaxsnинг (javobgarlikning) sog‘lig‘iga zarar yetkazishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Zero, tajovuz qiluvchi shaxslar harakatlari o‘zga shaxs (jabrlanuvchi) ni xayotdan maxrum etishga, uning mulkka bo‘lgan xuquqidan maxrum etishga yoki jinsiy erkinlikning yoxud boshqa obyektlarga qarshi yo‘naltirilgan bo‘lsa, jinoyatni tan jarohati (og‘irlilik darajasiga qarab) yetkazish deb baholash emas, balki Jinoyat kodeksi Maxsus qismining boshqa moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi.

Tajovuz qilish natijaspida nimaga zarar yetkazilganligin aniqlash ham muhim hisoblanadi.

Tan jarohati yetkazish jinoyatlarida jismoniy zarar inson tanasining turli sohalariga yetkaziladi. Lekin jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan qilmishning subyektiv tomon belgilari uning obyektiv tomon belgilardan anglashilishi mumkin, ya’ni tan jarohati yetkazish sohasi (tan jarohatining qaysi qismi) dan kelib chiqib tajovuz aslida nimaga qaratilganligi ayon bo‘lishi mumkin. Masalan, kichik hajmdagi pichoq yoki sanchuvch predmet bilan bo‘lsada, o‘zga shaxs (jabrlanuvchi) ning yurak, bo‘yin sohasi yohud musht bilan bo‘yining old tomoniga urish o‘zga shaxsni (jabrlanuvchini) hayotdan maxrum qilishga qaratilgan harakat hisoblanadi.

Tajovuzni amalga oshirgan shaxs o‘ldirish maqsadida harakat qilmaganligini bidirsada, uning qilmishida hayotdan maxrum etishga qaratilgan qasd mavjudligi anglashiladi.

Ushbu jinoyat bo‘yicha zararning yetkazilish mexanizmiga anqlik kiritish lozim. Jinoiy zararnig tananing qaysi sohasida joylashganligi, uning shakli, o‘lchamlari, xususiyati, kelib chiqish mexanizmi (qanday predmet yoki qaysi yo‘l bilan keltirib chiqarilishi mumkinligi) ham aniqlanishi lozim.

Yekazilgan zararning miqdori tan jarohatining xususiyati va og‘irlilik darajasini aniqlash orqali belgilanadi. Bunga shaxsga (jabrlanuvchiga) nisbatan sud-tibbiy ekspertiza tayinlash va uning xulosasini olish orqali erishiladi;

b) tajovuzning qayerda, qachon, qay tarzda, bir shaxsnинг yoki bir necha kishining harakatlari bilanmi, ulardan tutgan o‘rni, roli, qanday holatlarda, oqibalari qanaqa, yetkazilgan zarar, qilmish va oqibatlar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish, jinoyatga ko‘maklashgan holatlar va xokazo.

Ushbu jinoyat bo‘yicha harakatlar amalga oshirish nimalarda o‘z ifodasini topganligi, ushbu harakatlar (masalan, zorbalar berish) necha bor va qanday yo‘nalishda amalga oshirilganligi, ushbu harakatlar qanday oqibatlar kelitirib chiqarganligi, qilmish va oqibat o‘rtasidagi sababiy borg‘lanish (ya’ni kelib chiqqan oqibatning aynan sodir etilgan harakatlar natijasida yuzaga kelganligi), bundan tashqari qilmish sodir etilgan hudud – aniq manzil, oriyentori, vaqt, sanasi, soati ham aniqlanishi lozim (bular ushbu vaqtda va hududda kimlar bo‘lishi mumkinligi yoki

bo‘lganligi, ularni ishda guvoh sifatida ettirish hamda kerakli ma’lumotlar yig‘ilishida ham muhim hisoblanadi);

v) tajovuzni kim sodir etdi, unining shaxsini tavsiflovchi ma’lumotlar, agar shaxslar guruhi ishtirok etshgan bo‘lsa, ular kimlar.

Jinoyat bo‘yicha tajovuz – tan jarohati yetkazishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiruvchi shaxslar, ularning familyasi, ismi, sharifi, tug‘ilgan yil, oy kuni, jinsi to‘g‘risidagi ma’lumotlar aniqlanishi kerak. Bundan tashqari har bir shaxsning tug‘ilgan va yashash joyi, ish joyi va kasbi, oilaviy ahvoli, sudlanganlik holati ham tekshirilib, aniqlik kiritilishi lozim. Jinoyatni sodir etgan bir guruh shaxslar o‘rtasidagi munosabatlар ham muhim hisoblanadi. Bu jinoyatni sodir etishdan ko‘zlangan maqsad, ularni birlashtirgan sabablar hamda ayblilik darajasini ochishda muhim o‘ringa ega;

g) ayb, uning shakli, qasddan qilingan ayb bo‘lsa, uning sababi va maqsadi.

Jinoyatni sodir etishda aybning mavjudligi sodir etilayotgan harakatlar shaxs ruhiy munosabati munosabati bilan bog‘liqligini anglatadi. Qilmishni jinoyat deb topish uchun shaxsning (tajovuzni amalga oshiruvchi shaxsning) qilmishga nisbatan qasd yoki ehtiyyotsizlik shaklidagi ruhiy xulq-atvori bo‘lish zarur. Chunki qilmishda aybning har ikkala shaklining ham bo‘lmasligi uni jinoyat emas, balki aybsiz holda zarar yetkazish deb topilishi hamda jinoyat sifatida baholanmasligiga olib keladi⁹.

Masalan, qilmishni «o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabiti bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga bunday shaxs tomonidan o‘z xizmat faoliyati yoki fuqarolik burchni bajarishga to‘sinqilik qilish, shuningdek, bunday faoliyat uchun o‘ch olish maqsadida qaksddan o‘rtacha og‘ir shikast yetkazgan aybdorning haraktalri Jinoyat kodeksi 105-modda «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi¹⁰.

Bundan tashqari, «oilada, uyda qarindosh-urug‘, tanish-birordarlarga nisbatan sodir etilgan haqoratlash, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish kabi holatlar, agar shaxsiy kelishmovchilik natijasida kelib chiqqan bo‘lsa yoxud jabrlanuvchining nojoiz xatti-harakatlari oqibatida sodir etilgan bo‘lsa, shaxsga qarshi jinoyat deb baholanshi va Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

⁹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 24-модда

¹⁰ Қаранг: «Баданга қасдан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида» ги 2007-йил 27-июндаги Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг №6-сонли карори 8-банд